

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
Respublika ta'lim markazi**

**Ayrim fanlar chiqur o'rganiladigan davlat
ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining 3-4-
sinflari uchun mehnat fanidan o'quv dasturi**

Toshkent-2015

Tuzuvchi: Z.Shamsiyeva – Respublika ta'lim markazi bo'lim boshlig'i

UQTIRISH XATI

Ushbu o`quv dasturlari umumiy o`rta ta`lim maktablarida Davlat ta`lim standarti asosida mehnat ta`limi fanini o`qitishning mazmun-mohiyatini, maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida mehnat ta`limi fanini o`qitishning maqsadi – o`quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko`nikma, malakalarini, mehnatga qiziqish, mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ahamiyatini tushunishga o`rgatish hamda kasb tanlashga tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ta`limiy – tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish lozim bo`ladi:

**Ta`limiy vazifa** – o`quvchilarning barkamol shaxs bo`lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasb asoslarini (texnologiyasini) o`rgatish va kasb tanlash bilan uyg`unlashtirish orqali kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratish bilan egallagan bilimlarini uzviy rivojlantirish asosida mehnat qurollari, vositalari, jarayonlari, hududiy ishlab chiqarishning asoslarini o`rgatish; texnika va texnologiyalar asosida egallanayotgan kasb-hunar sohasi xususiyatlari, shu sohaning ilg`or vakillari faoliyati bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy vazifa – o`quvchilarning umummehnat ko`nikmalarini shakllantirish jarayonida ma`naviy-ahloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, ekologik, vatanparvarlik, insonparvarlik va tadbirkorlik sifatlarini shakllantirib borish.

Rivojlantiruvchi vazifa – o`quvchilarning kasbgacha tayyorgarligini rivojlantirish, mehnat ta`limi mazmunini takomillashtirish orqali barkamol shaxs bo`lib yetishishlariga yordam berish.

Ijodiy vazifa – mehnat ta`limi jarayonida kasb-hunar asoslariga oid bilim, ko`nikma va malakalarini zamonaviy talablar darajasida bo`lishini ta`minlash uchun o`quvchilarning mustaqil ravishda ijodiy faoliyat yurita olishi.

Amaliy vazifa – buyum, narsa, namunalar asosida zaruriy buyurtmalarni amalda bajara olish.

Maktabda mehnat ta`limidan o`tkaziladigan mashg`ulotlar qo`yidagi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

-o`quvchilarda dastlabki nazariy va amaliy mehnat tajribalarini hosil qilish, zamonaviy texnika borasidagi bilimlari doirasini yanada kengaytirish, ularda kishilar mehnati va mehnat jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatda bo`lishga tayyorlash;

- o`ziga topshirilgan har qanday ishni uddalay bilish, mehnatning o`ziga xos madaniyati va uning nazariy asoslarini egallash, o`z ishini va o`rtoqlarining ishlarini rejalashtirish hamda tashkil eta olishga o`rgatish;

- o`quvchilarni mehnat ta`limi mashg`ulotlari jarayonida aqlli, odobli, yaxshi ahloqiy sifatlar shakllangan, did-farosatli hamda jismonan sog`lom qilib tarbiyalashni amalga oshirish.

Mazkur yo`nalishlar yuzasidan quyidagi bo`limlar bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalar shakllantiriladi:

3-4 sinflar

1. Qog`oz va karton bilan ishlash.
2. Gazmol va tolali materiallar bilan ishlash.
3. Plastilin va loy ishi.
4. Turli materiallar bilan ishlash.
5. Badiiy qurish-yasash.

Har bir dars mashg`ulotida xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilinadi.

3-sinf

Qog`oz va karton bilan ishlash (10 soat)

Qog`ozdan turli parrandalar, turli geometrik shakllar, rangli qog`ozlardan lola, qo`ziqorin, sichqon, o`yinchoqlar, gerlandiyalar, archa bezaklarini tayyorlash va bezash, mozaika usulida o`yinchoqlar yasash. Rasm uchun ramka tayyorlash. Qog`ozdan gullar, pape-mashe usulidan idishlar, hajmdor gul, applikatsiya usulida bayramlarga tabriknomalar yasash.

Gazlama va tolali materiallar ishlash (10 soat)

Ichki chok haqida umumiy ma`lumot. Qo`l, mashina va bezak choklarini tikish. Yumshoq o`yinchoqlar tikish haqida umumiy ma`lumot (ilon, jo`ja, pingivin, ayiq va boshqalar). Yumshoq o`yinchoq uchun andoza tayyorlash va gazlamaga joylashtirish, bichish. Qirqimlarga ishlov berish, tikish, bezash. Ishni yakunlash.

Texnik modellash (2 soat)

Turli harakatli o`yinchoqlar yasash.

Plastilin va loy ishi (3 soat)

Plastilin yoki loydan turli idishlar, hayvonlar, o`yinchoqlar yasash

Turli materiallar bilan ishlash

(2 soat)

Tabiiy materiallardan turli o`yinchoq yasash. Chiqindi materiallardan turli o`yinchoqlar yasash.

Badiiy qurish-yasash

(7 soat)

Tabiiy xom-ashyolardan applikatsiya usulida, urug`lardan mozaika qurish – yasash. “Qush bolasi bilan” kompozitsiyasini qurish-yasash. “Yil fasllari” manzarasini qurish-yasash.

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi

(34 soat)

Kashtalarning mahalliy turlari. Kashtachilikda ishlatiladigan sanoqli chok tirlari (yarim krest, krest va juft krest). Sochiqni krest choki bilan bezash. Sochiq o`rtasiga gul tasvirini tikish. “Gul va barg” tasvirini ilgakli chokida, “Qo`ziqorin” tasvirini zanjir choklarida tikish.

To`qish usullari spitsa haqida ma`lumot. Spitsa bilan ishlash usullari (petliya oish, o`ng, ters). To`qima chok, 1x1, 2x2 rezina choklar, badroq chok turlarini o`rgatish. Bobonchik va kist tayyorlash. Ro`mol, sharf, sumkacha, chaqaloqlar qalpo`chasi, poypoqchasi va boshqa buyumlarni to`qish.

Amaliy ijodiy ish: “Kapalak va gul” mavzusida kompozitsiya ishlash

4-sinf

Qog`oz va karton bilan ishlash

(10 soat)

Mehnat ta`limi darslarida ish qurollaridan xavfsizlik qoidalari asosida unumli foydalanish. Qog`ozlarni turli ko`rinishda murakkab shakllarda buklab, o`yinchoqlar yasash. Turli bayramlarga applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash. Duradgorlik, temirchilik kasb-hunarlar haqida ma`lumot. Qog`ozdan turli buyumlar savat, qaldirg`och, kabutar, xo`roz yasash. Qorbobo ustaxonasida archa bezaklarini yasash. “Kuz” manzarasini applikatsiya usulida ishlash. To`g`ri to`rtburchak ichida applikatsiyadan foydalanib, naqsh tuzish. Gilamdagi naqshlar. Kulolchilik kasbi haqida ma`lumot. Pape-mashe usulida kosa yasash. Xamir tayyorlashga o`rgatish (qog`ozdan chuchvara).

Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash

(10 soat)

Texnika xavsizlik qoidalari. Gazlama gullaridan applekatsiya usulida guldasta tayyorlash. Ipdan o`yinchoq yasash. Ko`klash va biriktiruvchi choklar haqida tushuncha. Ko`klash va biriktiruvchi choklardan namunalar tikish. Yumshoq o`yinchoqning murakkab turlarini bichish va tikish.

Texnik modellash (3 soat)

Uchuvchi, suzuvchi va harakatlanuvchi texnik modellar yasash.

Plastilin va loy ishi (3 soat)

Plastilin bilan ishlash. Ertak qahramonlarini yasash. Oshxona jihozlari bilan tanishtirish. Plastilindan oshxona jihozlari yasash. Uy-ro`zg`or buyumlari bilan tanishtirish. Plastilindan uy-ro`zg`or buyumlari yasash.

Turli materiallar bilan ishlash (3 soat)

Kuzgi gullarga qarab donlardan, urug`lardan gul, tabiiy material, xomashyolardan gullar yasash. Gullarni o`stirish.

Badiiy qurish-yasash (5 soat)

Urug`lardan mozaika usulida turli hayvonlarni qurish-yasash. Mustaqil ravishda tabiiy xomashyolardan kvadrat ichida naqsh qurish- yasash. Duradgorlik asboblari bilan tanishtirish. Turli idishlar yasash va uni bezash. Geometrik shakllardan “Kuz” manzarasini qurish-yasash.

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (34 soat)

To`qish usullarida shartli belgilar haqida ma`lumot. Sho`l bargi chokini to`qish. O`g`il bolalar uchun shapka, sharf to`qish. Rom usulida sharf to`qish. Bostirma gul chokini to`qish. Bolalar uchun pinetka, nimcha to`qish. Shaxmat chokini to`qish. Rugzak to`qish. Bolalar uchun qo`lqopcha to`qish. Archa chokini to`qish. Kruchokda bezak elementlarini va setka to`qish.